

№ 8 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Воҳидова Комила Абдуллозизовна</i>	
“ЭЛ БАЙРОФИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА	11-17
<i>Сулайманов Саламат Арапбаевич</i>	
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ)	18-24
<i>Raupov Холмамат</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ	25-32
<i>Мажидов Анвар Сиражович</i>	
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	33-40
<i>Begamatova Nasiba Xolmurzayevna</i>	
FERMER XO'JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O'RTA MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	41-48
<i>Алланазаров Мурот Мирзаевич</i>	
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА	49-54
<i>Ismoilova Feruza Ibragimovna</i>	
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI	55-59
<i>Tursunov Xurshid Nasriddinovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI	60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Yuldasheva Gulnoza Abdinabiyevna</i>	
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES	65-70
<i>Oromidinov Muzaffar Pardabayevich</i>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS	71-75
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i>	
ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	76-84

<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i>	
КО'ЧХМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШДА ХОРИЙИ ДАВЛАТЛАРДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОХОТЛАР	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i>	
МИНТАҚАДА ХИЗМАТ ТУРЛАРИДАН САМАРАЛИ РИВОЈЛАНТИРИШ ЙО'НАЛИШЛАРИ	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i>	
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i>	
AGRAR SOHAGA XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i>	
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Гаффор Аллақулович</i>	
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёрөв Олимжон Умаровиҷ</i>	
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевиҷ</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназаровиҷ</i>	
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

<i>Гадоев Сўҳроб Жумакулович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	175-181
<i>Бекжанов Дилмурад Йўлдашович</i>	
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ	182-193
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li</i>	
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA)	194-200
<i>Xayridinov Abbosxon Anvarovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLİSHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI	201-205
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI	206-211
<i>Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich</i>	
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI	212-217
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV	218-224
<i>Пардаева Марҳабо Давлатовна</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ФОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ	225-233
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	234-240
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i>	
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR	241-246
<i>Юсупова Феруза Зойировна</i>	
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАҶНАВИЙ ЮҚСАЛИШИННИГ МЕЗОНИ	247-251
<i>Teshaboev Muhiddin Marifovich</i>	
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI	252-257

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i>	
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLOGIK BIRLIKLER LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i>	
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинақуловна</i>	
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i>	
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i>	
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i>	
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	300-305

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i>	
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ	321-330

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i>	
TIBBIYOT OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSİYAGA SEZGİRLİĞİ” MAVZUSINI O'QTİSHDA RAQAMLI TEKNOLOGİYALARDAN	

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i>	
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i>	
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i>	
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i>	
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i>	
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i>	
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i>	
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHА SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i>	
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i>	
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i>	
SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i>	
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i>	
BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i>	
INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

Turabova Sevara Kattaqulovna
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasi dotsenti
E-mail:turobova.sevara@mail.ru

ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV

Annotatsiya. Maqolada ilmiy bahs yuritish masalasining zamonaviy mantiq va epistemologiyada qo'yilishini tahlil etish orqali ilmiy bahsning bilish jarayoni, amaliy muhokama yuritish, xususan, ilmiy muammolarni qo'yish va hal etish jihatlari asoslangan. Ilmiy manbalar asosida bahsning tasniflashtirish belgilari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy bahs, mantiq, dalil, isbot, madaniyat, polemika , debat, disput, dialektik bahs, eristik bahs, sofistik bahs, apodektiv bahs, isbot, argument.

Turabova Sevara Kattakulovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
Associate Professor, Termez University of Economics and Service

CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACH IN THE STUDY OF THE LOGICAL AND GNOSEOLOGICAL STATUS OF THE PHENOMENON OF A SCIENTIFIC DISPUTE

Abstract. This article analyzes the functional aspects of the dispute phenomenon as a developing intellectual phenomenon passing through the stages of its emergence, formation and development. Based on the analysis of the formulation of a scientific discussion in modern logic and epistemology, the article substantiates the cognitive, practical and debatable aspects of the dispute. In particular, the importance of a scientific dispute in the formulation and solution of scientific problems is revealed. So, on the basis of scientific sources are analyzed the classification features of the dispute.

Key words: scientific dispute, logic, argument, proof, culture of dispute, controversy, debate, dispute, dialectical dispute, eristic dispute, sophistical dispute, apodeictic dispute, proof, argument.

Турабова Севара Каттақұловна,
доктор философии по философии (PhD)
доцент Термезского университета экономики и сервиса

КОНЦЕПТУАЛЬНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ИЗУЧЕНИИ ЛОГИКО- ГНОСЕОЛОГИЧЕСКОГО СТАТУСА ФЕНОМЕНА НАУЧНОГО СПОРА

Аннотация. В данной статье анализируются функциональные аспекты феномена спора как развивающееся интеллектуальное явление проходящие этапы своего возникновения, формирования и

развития. В статья на основе анализе постановки научной дискуссии в современной логике и эпистемологии обосновывается познавательные, практические-дискуссионные аспекты спора. В частности, раскрывается значимость научного спора в постановки и решения научных проблем. Так, же на основе научных источников проанализированы классификационные признаки спора.

Ключевые слова: научный спор, логика, аргумент, доказательство, культура спора, полемика, дебат, диспут, диалектический спор, эристический спор, софистический спор, аподектический спор, доказательство, аргумент.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N30>

Kirish. Ilmiy bahs fenomeni ko'p qirrali ko'rinishga ega jarayon bo'lib, bahs yuritish faoliyatining tarkibiy qismlari, ustuvor jihatlari va uni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni alohida-alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha aytganda, "bahs nima?", "u qanday o'ziga xosliklarga ega?", "unga qanday jihatlar tegishli?" kabi savollarga javob topish lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Eng avvalo, bahs va uning o'ziga xosliklariga asoslangan holda, "bahs" tushunchasi va uning tarkibiy qismlarining konseptual talqinini aniqlashtirish maqsadga muvofiq. "O'zbek tilining izohli lug'ati" hamda "Pedagogika: ensiklopediya"sida "bahs" tushunchasiga quyidagicha ta'riflar berilgan: "Bahs" (arabcha بحث – muhokama; tadqiqot; mubahasa) muayyan muammolarni jamoa bo'lib muhokama qilish, ayrim hollarda bir-birini inkor etuvchi fikr-mulohazalarni ilgari surish orqali muammoning yechimini topishga qaratilgan usul"dir[4. 129].

Mantiqshunos olim A.A. Ivinning fikriga ko'ra "Bahs — bu fikrlar yoki qarashlar to'qnashuvi bo'lib, unda raqiblar tomonidan o'z qarashlarining to'g'rilingini qo'llab-quvvatlash uchun dalillar keltirilib, o'ziga mos kelmaydigan g'oyalar tanqid qilinadi"[6. 216].

Falsafa fanlari doktori, professor Q.Nazarov esa mazkur tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Bahs–munozara muhokama qilish madaniyatini rivojlantirish, suhbatdoshni tushunish uchun zarur bo'lgan texnikani qo'llash borasidagi amaliy mantiqning yorqin namunasidir.

V.Alimasovning tavsifiga ko'ra, "bahs – yondashish va xulosalarni oydinlashtirish, mavjud qarashlarga munosabat bildirish usulidir" [1. 52].

Bahs ilmini metodologik jihatdan tadqiq etish dastlab mantiqshunoslardan tomonidan boshlangan. Masalan xorijdagi bahsga oid ishlarga [10. 1-29]. E'tibor qaratadigan bo'lsak, bunda asosan bahs yuritish strategiyasi va taktikasi yordamida bahsda g'alaba erishish ko'nikmasini hayotga ham tatbiq etishga oid sof amaliy ishlanmalardan iborat ko'plab nashrlarni uchratish mumkin. Xususan, S. Tulmin o'zining "Argumentlarni qo'llash" ("The Uses of Argument") [12. 247] nomli asarida bahs va argumentlashni tahlil qilishdagi formal yondashuvni tanqid qilib, argumentlash nazariyasiga yangicha yondashuvni ishlab chiqish zarurligi masalasini o'rtaga tashladi. S. Tulmin mantiqni epistemologiyaga yaqinlashtirish kerakligini va shu yo'l bilan inson faoliyatining turli holatlarida yuzaga keladigan bahsli jarayonlarni qamrab olish hisobiga mantiqning tadqiqot doirasini kengaytirish lozimligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi.

Belgiyalik tadqiqotchilar Xaim Perelman va L. Olbrechts-Titek [9. 216] birgalikda advokatlar, siyosatchilar, sotsiologlar va gumanitar soha vakillarining faoliyatlarida ko'p qo'llaniladigan argumentlash va bahs-munozaraning usul va qoidalarini o'rgandilar. Ular

o'zlarining "Yangi ritorika" nomli asarida jamoaviy bahsda, auditoriyani ishontirishda ishlattiladigan argumentlash qoidalarining o'ziga xos to'plamini yarata olishdi.

Formal dialektikaning mashhur vakillari Y.M. Bart va Y.V. Krabbe 1982 yilda o'zlarining "Aksiomadan dialoggacha" ("From Axiom to Dialogue") [9.] nomli kitobida umumiy qoidalar asosida u yoki bu nuqtai nazarni qabul qilishga mo'ljallangan "formal dialektika" tizimni ishlab chiqishdi. Unda himoyachi va raqib o'rtasida yuzaga keladigan tanqidiy dialoglarni o'tkazishning muayyan qoidalar majmui aks etdi.

Bugungi kunda yevropalik olimlar tomonidan argumentlashning pragmadialektika nomi ostidagi zamonaviy nazariyasi ishlab chiqilgan. Xususan, F. Yeyemeren, R. Grootendorst, E. Feteris, P. Xoutlosse, A. F. Xenkemas va boshqalardan iborat Amsterdam maktabi vakillari pragmadialektika deb nom olgan argumentlash nazariyasini taklif etishdi. Pragmadialektika argumentlashning mantiqiy va ritorik yondashuvlari o'rtasidagi oraliq holatni egallab turuvchi talqini hisoblanadi. Ushbu konsepsiyanı rivojlantirish doirasida ish olib borgan Niderlandiya maktabi vakillari har ikki yo'nalişning afzalliklarini jamlagan tarzda pragmadialektika konsepsiyasini rivojlantirdilar. Bunday yondashuvda dalillash pragmatiklik va bahs-munozara dialektik xarakter talablariga javob beradi. Pragmadialektikadagi eng muhim jihat diskussiya ishtirokchilarining harakatlarini ratsionallashtirishga qaratilgan qoidalar to'plamini shakllantirish hisoblanadi. Bahs-munozaraning pragmadialektik modellari, asosan reglamentga rioya qilish talab etiladigan hollarda masalan, sud-huquq tizimlarida ko'proq qo'llaniladi.

MDH davlatlaridagi bahsga oid aksariyat tadqiqot ishlariga nazar tashlasak bu ilmiy ishlar asosan mantiqiy-funksional xarakterga ega bo'lib, bunda nazariy asoslash elementlari ko'proq kuzatiladi. Bunga misol tariqasida A.A. Ivanning quyidagi ilgari surgan g'oyasiga e'tiborimizni qaratishimiz mumkin "bahs noformal mantiq va ritorikaning obyekti o'lar oq e'tibor va tadqiqotni talab qilib kelayotgan fenomen sifatida o'rganilsada, ammo u haqiqatga erishishga qaratilgan dialektikaning, "to'g'ri bahslashish" qoidasi doirasida cheklangan edi, vaholanki bu vaqtarda bahsda g'alaba qozonish mantiqiy tushuncha emas, balki psixologik tushuncha deb hisoblangan" [6. 232]. Ushbu konsepsiyanı ko'plab zamonaviy tadqiqotlar qo'llab quvvatlashadi. Xususan, aksariyat rivojlangan davlatlarning Mantiq fani bo'yicha har qanday darsligida bahs tipologiyasi, uni o'tkazish va isbotlashning to'g'ri va noto'g'ri usullari, sofistik paralogizmlar va mantiqiy xatolar (fallacies), "tuzoqlar" — "strategmalar", raqibni manipulyatsiya qilishga qaratilgan usullar [Blajevich, N.V. 2005[2.] Ivin, A.A. 2002; Pavlova, L.G. 1991[6.]; Piri, M. 2013[7.]; Povarnin, S.I. 1996 [8.] bo'limini topish mumkin.

MDH davlatlarida S.I.Povarninining bahsga oid yaratilgan "Munozara san'ati" [8.]; nomli asari eng dastlabki metodologik ahamiyatga molik ish sifatida e'tirof etilgan. S.I. Povarnin uch bu asarning asosiy qismini sillogistika qoidalariga (argument sifati, deduksiya va induksiya qoidalari va boshqalar) bag'ishlar ekan, bahsning quyidagi beshta asosiy turini ajratib ko'rsatadi:

1. Haqiqatni tekshirish maqsadidagi bahs;
2. Ishontirish maqsadidagi bahs;
3. G'alaba erishish maqsadidagi bahs;
4. Kuch sinashish maqsadidagi bahs;
5. O'yin-bahsi.

Ruzavin G.I. ham bahs-munozaraning turli xil sinflari mavjud ekanligi va bu sinflashtirishda bahsning maqsadi, unda qo'llanilgan argumentning xarakteri, ishontirishning mantiqiy va emotsiyal-psixologik vositalari asos qilib olinishini aytadi[11. 122].

Muhokama. Yuqorilardan ma'lum bo'ladiki, ilmiy bahs jarayonida isbotlash va rad etish markaziy o'rinni egallaydi. Bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, biz ilmiy bahsga dastlabki ishchi ta'rif sifatida qo'yidagicha izoh beramiz: ilmiy bahs o'zining gnoseologik xarakteriga ko'ra ilmiy muammolarni tadqiq qilish jarayonida muhokama qilish yo'li bilan haqiqatni izlashga mo'ljallangan muloqotning eng uyushgan va tizimli shaklidir. Ilmiy bahsda, bahs-munozaraning boshqa sodda shakllaridan farqli ravishda doimiy tarzda har ikkala tomon uchun dalil izlash, ularni tasdiqlash yoki inkor etish, maqbullarini tanlash hodisasi muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy bahs masalasiga mantiqiy-epistemik jihatdan yondashsak, haqiqiy ilmiy bahslar har doim ratsional asosga tayanadi, ya'ni uning samaradorligi unda ilgari surilgan argumentlarning mantiqan bog'langanligi va asoslanganligi bilan belgilanadi. Bu borada ishlatilgan dalil va isbotlar munozara ishtirokchilariga oqilona asosga tayangan holda haqiqatga erishish imkonini beradi.

Muayyan darajada bahsning boshqa sifatlarini ham tizimga solib, bahs haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkon beradigan, bahsning mohiyatini to'la ochib berishga xizmat qiladigan bahs klassifikatsiyasini shakllantirib olishga harakat qilamiz.

Bahsning maqsadiga ko'ra: apodiktiv (gr. apodeiktikos- isbotlangan, ishonchli, rad etib bo'lmaydigan); eristik (gr. eristika – bahs san'ati); sofistik (gr. sophisma — mohiyatan yolg'on xulosa) [6.21] turlari farqlanadi.

"Apodiktiv (dialektik) bahsning maqsadini haqiqatga erishish tashkil etadi" [5. 43]. Shuning uchun ham apodiktiv bahs jarayonida asosiy e'tibor isbotning mantiqiy shakllariga qaratiladi. Ya'ni, bunday bahsda tezisning aniq shakllantirilishi, asosiy dalilning ishtiroki, hukmlar o'rtasida ziddiyatlarning bo'lmasligi va nutqda yetarlicha asosning mavjudligi talab etiladi. Apodiktik bahs ma'lum bir obyektiv muammo aniqlanganda va uni hal qilishda turli xil yondashuvlar mavjud bo'lganda paydo bo'ladi. Bu bahs turi tezisning aniq shakllantirilishi, asosiy dalilning ya'ni xulosalar zanjiri boshlanadigan bosh asosning mavjudligini, ilgari surilayotgan mulohazalar orasida qarama-qarshiliklarning yo'qligini, dalillarning ishonchliligi va yetarlilagini nazarda tutadi. Apodiktiv bahsning argumentatsiyasi mantiq qonunlari va qoidalariga muvofiq quriladi.

Ushbu turdag'i bahs aniq shakllantirilgan muammolarni, ishonchli dalillarni va bahsli masalalar mohiyati raqiblar tomonidan aniq tushunilganligini talab etadi. Apodiktik bahsdan muvaffaqiyatli foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur: muammoga kompetent yondashuv, konstruktiv muloqot, e'tiborning aynan muammoga qaratilishi, intellektual toqat, haqiqat yo'lida shaxsiy ambitsiya va emotsiyalarni jilovlashga tayyorlik.

Apodiktik bahsning psixologik aspekti bahs ishtirokchilarining "obyektiv haqiqat hamma uchun bosh maqsad" deb hisoblashida aks etadi. Bunday bahs-munozarada Aristotel aytganidek: "Aflatun mening do'stim, lekin haqiqat muhimroq"dir aqidasida mudom sobitlik talab qilinadi. Ta'lif muassasalarida apodiktik bahs misolidagi amaliy mashg'ulot juda foydali bo'lib, unda bahs ishtirokchilari o'z tezislarini ilgari suradilar va ularni isbotlashga harakat qiladilar, qarama-qarshi tomonlar bir birining nuqtai nazarini tushunishga, boshqaning xam dalillarini tinglay olishga, o'z shaxsiy egoizmini yengishga imkon yaratiladi.

Natijalar. Bahs-munozaraning eristik ko'rinishi – g'alaba qozonish uchun olib boriladigan bahs bo'lib, "bunda asosiy maqsad apponentni ishontirishga qaratiladi" [5. 45]. Eristik uslubning asoschilarasi sofistlar bo'lib ular orasida abderlik Protagor muhim o'rinni egallaydi. G. Gauthier[4.]ning ma'lum qilishicha Protagor "eristika" atamasini birinchi bo'lib muomalaga kiritgan va shogirdi Evalt bilan mashhur sud jarayonini tasvirlab bergan ilk deontologik mantiqshunos hisoblanadi.

Eristik bahslarda polemist deyarli har doim bahs mavzusini o'ziga ma'lum bo'lgan va raqibiga esa noma'lum bo'lgan doiraga o'tkazishga intiladi. Biroq bu usulning manipulyatsion jihatni shundaki raqib uchun unchalik yaxshi ma'lum bo'limgan bahs doirasi tinglovchilar auditoriyasi uchun juda dolzarb va qiziq, eristning o'zi uchun esa tanish bo'lishi mumkin.

Bahs-munozaraga eristik yondashuv o'z nuqtai nazarining chinligiga ishontirish va raqibning fikrini inkor etish sifatida Qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan san'at ko'rinishida hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bunda kishi o'z nuqtai nazarini himoya qilish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lishi va birinchi navbatda raqibning mulohazasida mantiqiy xatolarni topishi, sofistik, psixologik tuzoqlar va polemikadagi noqonuniy usullarini ocha bilishi zarur bo'ladi.

"O'z pozitsiyasini himoya qilish va raqibning fikrlarini rad etishda turli xil psixologik tuzoqlar va sofizmni qo'llash usullarini eristika tarixida ishontirish san'ati sifatida o'rganish mumkin" [13. 27]. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib "Eristika yoki bahslashuv san'ati" kitobining muallifi bo'lgan Artur Shopengauer eristik nazariyasiga yondashar ekan u "eristik dialektika-bahsda doimo haq bo'lib chiqish san'ati" [14. 618]. ya'ni "per fas et nefas" [15. 12], deb tushuntiradi. A. Shopengauer eristik xulq-atvorning kelib chiqish sababini bahslashuvchi shaxsning psixodemotsional tabiatidan izlaydi. Shopengauerning fikricha[16. 52], "haqiqat dialektik (dialogik) mexanizm sifatida faqat bahsda tug'ilishi mumkin. Biroq, inson tabiatida yashiringan subyektiv sabablar nafaqat bahsda haqiqatga erishishga halal beradi, balki haqiqatga erishishni amalda imkonsiz ham qilib qo'yadi".

A. Shopengauer eristik, sofistik va dialektika o'rtasidagi farqni aniq ajratmagan. U avvaliga o'z asarining nomini hatto "Dialektika" deb ham nomlamoqchi bo'lgan. Shopengauer ham, Kant kabi, dialektikani "bahslashuv yoki suhbat qurish san'ati" deb hisoblaydi. Uning fikricha, dialektikaning tadqiqot mavzusi "ikki aqli mavjudotlarning hamkorlikda fikrlash faoliyati bo'lishi kerak va mabodo ular o'zaro murosaga kelolmaydigan bo'lishsa, shubhasiz, bahs kelib chiqadi[17. 2]" deb hisoblagan. Uningcha, bahsdan maqsad nafaqat o'z fikrining to'g'ri ekanligini raqibga ishontirish va himoya qilish, balki eng muhimi g'alabaga erishish hamdir.

Albatta, masalani to'liq va chuqur bilmasdan, bunday maqsadga erishish mumkin emas, ammo uning ishida bahsda yo'l qo'yilmasligi kerak bo'lgan xatolarni tahlil qilish va shu bilan raqibning oson g'alaba qozonish imkoniyatlarining oldini olishga oid tahlillari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, murakkab va qiyin vaziyatlardagi bahslarda haq bo'lib chiqqa olishlari uchun odamlarga yordam berish maqsadida Shopengauer bahslardagi maxsus hiylanayranglarni o'rgandi va ishlab chiqdi, hamda ularni o'zining "Eristik dialektika" deb nomlangan ta'limotida mos usul va qoidalarini bayon qildi.

Bahs-munozaraning sofistik ko'rinishi egotsentrik va buzg'unchi yondashuv, salbiy ritorika bilan tavsiflanadi. Sofistik bahs apodektik bahsdan farqli o'laroq, asosan raqibni mag'lub etish maqsadini ko'zlaydi. Sofistik disput har qanday aksiologik ahamiyatdan mahrum

bo'lib, asosiy maqsad-qanday bo'lmasin g'alabaga erishish hisoblangan. G'alaba qozonish istagi ortidan sofist haqiqatni qidirish bilan mutlaqo qiziqmaydi va sherigini xam biror narsaga ishontirishga intilmaydi.

Zamonaviy adabiyotlarda sofistik va eristik bahs-munozaralar aksariyat holatlarda farqlanmaydi. Masalan, D. Walton yuqorida sanab o'tilgan muloqot turlari orasidan aynan eristik muloqot turini raqobatbardoshlik va kurashuvchanlikning yuqori darajasi sifatida xarakterlaydi, chunki "bunda har bir ishtirokchi o'zi haqida muxlislar nazarida eng aqlli va eng iqtidorli sifatidagi taassurot qoldirishga urinadi" [18.] Bunday holat muloqotning xarakterini ham belgilaydi. Olimning fikriga qo'ra, "bunday muloqotning chegaradan chiqqan ko'rinishi janjalni keltirib chiqaradi".

D. Walton[19.] muloqotning ichki holati (the initial situation of a dialogue)dan kelib chiqib, ishtirokchilarining individual (individual aims) va jamoaviy maqsadlari (collective main goal)ga asoslangan holda muloqotning oltita asosiy turini farqlaydi. Bular: "ishonch-e'tiqod muloqoti (persuasion dialogue), muzokaralar muloqoti (negotiation dialogue), eristik muloqot(eristic dialogue), tadqiqot muloqoti (inquiry dialogue), muhokama muloqoti(deliberation dialogue) va axborot izlashga qaratilgan muloqot (information-seeking dialogue)lardir" [20. 183]. Shu bilan birga, D. Walton ko'pincha o'zining asarlarida "eristik dialogga sofistik dialog sifatida ham qaraydi" [21. 195].

Walton D. eristik muloqot turini kurashuvchanlik va raqobatbardoshlikning yuqori darajasi sifatida xarakterlaydi, chunki bunda har bir ishtirokchi o'zi haqida muxlislar nazarida "eng aqlli va eng iqtidorliman" degan taassurot yaratishga urinadi. Natijada bunday holat muloqotning xarakterini ham belgilaydi. D. Waltonning fikriga qo'ra, bunday muloqotning chegaradan chiqqan ko'rinishi janjalni keltirib chiqaradi.

Natijalarni qisqacha ifodalaydigan bo'lsak:

Birinchidan, eristik muloqotning bahs ko'rinishidagi turi bilan shug'ullanadi. Har qanday bahs esa muloqot ishtirokchilari o'rtasida faol va tanqidiy fikr almashishni nazarda tutadi.

Ikkinchidan, eristik kommunikatsiyaning xarakterli xususiyati shundaki, u har doim g'alaba uchun bo'lgan bahsni anglatadi. Bunday bahslarda turli xil hiyla va tuzoqlar ishlatalishi mumkinligi kuzatiladi.

Xulosa. Ma'lumki, hayotda bahs-munozaraning mohiyatiga oid jihatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi, shuning uchun uning muhim talablaridan biri bahsning turini (masalan, diskussiyami, debatmi yoki polemika) konkret sharoitlar bilan belgilanadigan holatlardan kelib chiqib tanlashdir. Avvalo shuni aytish kerakki, diskussiya, debat, polemika va disputlarning talqini bir xil ma'noni anglatmaydi. Ammo, mamlakatimizdagi pedagogika, filologiya va hatto mantiq sohalariga oid bo'lgan aksariyat ilmiy adabiyotlarda bahsning xususiy shakllari va ularning o'zaro farqli tomonlari tahlil qilinmaganligi kuzatiladi. Aslida esa, amaliyotda "diskussiya, debat, polemika va disputlar sinonimlar ya'ni bahsning xususiy shakllari sifatida xarakterlanishi" lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Алемасов В., Мамадалиев Ш.О. Илмий тадқиқот: методология, методика, ижодиёт. Катта илмий ходимлар-изланувчилар ва мустақил изланувчилар учун қўлланма. II қисм. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – 52 б.

2. Блажевич, Н.В. Судебная эристика: монография / Н. В. Блажевич. Тюменский юридический ин-т. – Тюмень : Тюменский юридический ин-т МВД РФ, 2005. – 111 с.
3. Gauthier, G. Le cadre éristique du débat argumentatif / G. Gauthier// Communication. Vol. 30/2 , 2012. – URL: <http://journals.openedition.org/communication/3570>
4. Педагогика: энциклопедия. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2015. – Б.129.
5. Коренная О. Б. Спор. К вопросу о логико-психологических аспектах спора // Вестник Амурского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2013. – №. 60. – С. 43.
6. Павлова, Л.Г. Спор, дискуссия, полемика / Л.Г. Павлова. – М.: Просвещение, 1991. – 124 с.
7. Пири, М. Железные аргументы. Победа, даже если ты не прав / М. Пири. – Москва: Питер, 2013. – 191 с.
8. Поварнин, С.И. Спор: О теории и практике спора (1918) / С.И. Поварнин. – СПб.: Лань, 1996. – 149 с.
9. Perelman Ch, L., Olbrechts-Tyteca. The New Rhetoric: A Treatise on Argumentation. - London: Notre Dame, 1969
10. Perelman, Ch. Traité de l'argumentation. La nouvelle rhétorique / Ch. Perelman, L. Olbrechts-TYTECA. – Bruxelles: Ed. De l'Université de Bruxelles, 1983. – 734 p.
11. Рузавин Г.И.-Логика и аргументация.-М:Юнити,1997.-С.122
12. Stephen E. Toulmin. The Uses of Argument. Cambridge University Press, 2003 P. 247
13. Тамразова И. Г. Функционально-прагматические характеристики эристического дискурса. Автореферат дис. кандидата философских наук. – Пятигорск, 1999. – С. 27.
14. Шопенгауэр А. Эристическая диалектика // Логика и риторика. Хрестоматия / сост. В.Ф. Берков, Я.С. Яскевич. Мн., 1997. – С. 618
15. Шопенгауэр А. Искусство побеждать в спорах (сборник) / А. Шопенгауэр — «Эксмо», 1900
16. Schopenhauer, A. L'art d'avoir toujours raison ou Dialectique éristique (1864) / A. Schopenhauer. – Strasbourg: Circé. 1999. – P.52
17. Шопенгауэр А. Эристика или искусство спорить. - Санкт-Петербург: 1900,
18. Walton, D. A Pragmatic Theory of Fallacy / D. Walton. – The University of Alabama Press, Tuscaloosa, 1995. – 324 p.
19. Walton D.N., Krabbe E.C.W. Commitment in dialogue. Albany: State University of New York Press, 1995
20. Walton, D. Fundamentals of Critical Argumentation. – NY, 2006. – P. 183.
21. Walton, D. The new dialectic: Conversational contexts of argument. – To- ronto, 1998 – P.195.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).